

NUTQ FAOLIYATI TURLARI TUSHUNCHASI VA ULARNING LINGVODIDAKTIK MOHIYATI

Mamatova Jasmina Xoshim qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutq faoliyati turlari tushunchasining nazariy asoslari, psixolingvistik talqini va lingvodidaktik jihati chuqur tahlil qilinadi. Nutq faoliyatining reseptiv va produktiv shakllari bir-biri bilan bog'liq tizim sifatida yoritilib, ularni o'qitishda kommunikativ, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning ilmiy asoslari keltirilib beriladi. Shu bilan birga, nutq faoliyatini rivojlantirishning metodik tamoyillari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan chambarchasligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: nutq faoliyati, lingvodidaktika, kommunikativ kompetensiya, reseptiv faoliyat, produktiv faoliyat, integratsiya, metodika, til ta'limi.

THE CONCEPT OF SPEECH ACTIVITY TYPES AND THEIR LINGUODIDACTIC SIGNIFICANCE

Mamatova Jasmina Xoshim qizi

Student of Samarkand State Pedagogical Institute

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations, psycholinguistic interpretation, and linguodidactic essence of the concept of speech activity types. The receptive and productive forms of speech activity are presented as an interconnected system, and the scientific foundations of communicative, competency-based, and integrative approaches to their teaching are revealed. Additionally, the methodological principles for developing speech activity and their compatibility with modern pedagogical technologies are substantiated.

Keywords: *speech activity, linguodidactics, communicative competence, receptive activity, productive activity, integration, methodology, language teaching.*

ПОНЯТИЕ ВИДОВ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Маматова Жасмина Хошим кизи

студентка Самаркандского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье проводится углублённый анализ теоретических основ понятия видов речевой деятельности, их психолингвистической интерпретации и лингводидактических аспектов. Рецептивные и продуктивные формы речевой деятельности рассматриваются как взаимосвязанная система, а также представлены научные основы коммуникативного, компетентностного и интегративного подходов к их обучению. Кроме того, выявляется тесная связь методических принципов развития речевой деятельности с современными педагогическими технологиями.

Ключевые слова: *речевая деятельность, лингводидактика, коммуникативная компетенция, рецептивная деятельность, продуктивная деятельность, интеграция, методика, языковое образование.*

Kirish qismi. Globallashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish talabi oshib borayotgan bir zamonda til ta'limining asosiy maqsadi kommunikativ kompetensiyani yaratishdan iborat. Tilni o'rganish davomida grammatik bilimlar, leksik birliklar va fonetik ko'nikmalar muhim hisoblansa-da, ular nutq faoliyati yordamida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nutq faoliyati insonning til orqali axborot almashish jarayonidagi ongli faoliyatidir. U psixologik, lingvistik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog'liq murakkab tizim hisoblanadi. Zamonaviy lingvodidaktika nutq faoliyati turlarini o'qitish metodikasini ilmiy asoslashni til ta'limining markaziy masalasi sifatida hisoblaydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – nutq faoliyati turlari tushunchasini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning lingvodidaktik mohiyatini yoritib berishdir.

Asosiy qism. Nutq faoliyati tushunchasi psixolingvistika fanida shakllangan bo'lib, u insonning kommunikativ ehtiyoji bilan bog'liq jarayon sifatida belgilanadi [1, 34b]. A.A.Leontyev nutq faoliyatini maqsadga yo'naltirilgan, motivatsiyalangan va ijtimoiy xarakterga ega faoliyat turi sifatida izohlab ketadi [2, 45b]. Bu jarayonda til vosita vazifasini bajaradi. Psixologik nuqtai nazardan nutq faoliyati quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: motivatsiya; rejalashtirish; amalga oshirish; nazorat va baholash [2, 78b]. Demak, nutq faoliyati tafakkur bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikrning til vositasida ifodalanishi va qabul qilinishi jarayonidir. Lingvistik jihatdan nutq faoliyati til birliklarining real kommunikativ vaziyatda ishlatilinishini anglatadi. Til – tizim, nutq esa uning amaliy ko'rinishidir. Shu sababdan tilni o'qitishda nutq faoliyati markaziy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda nutq faoliyati to'rtta asosiy turga ajratiladi [3, 112b]:

- ✓ Tinglab tushunish (audial faoliyat)
- ✓ Gapirish (og'zaki nutq)
- ✓ O'qish (vizual nutq)
- ✓ Yozish (grafik nutq)

Mazkur faoliyat turlari funksional jihatdan ikki guruhga bo'linadi [3, 118b]:

1. Reseptiv faoliyat: tinglab tushunish va o'qish

Reseptiv faoliyat axborotni qabul qilish va semantik jihatdan qayta ishlash jarayonini bildiradi. Bunda idrok, tafakkur va xotira faol ishtirok etadi.

2. Produktiv faoliyat: gapirish va yozish

Produktiv faoliyat esa mustaqil ravishda nutq yaratish, fikrni og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashni nazarda tutadi [3, 120b]. Real kommunikativ vaziyatda reseptiv va produktiv faoliyat o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, muloqot davomida shaxs tinglaydi va javob qaytaradi; matnni o'qib, unga yozma munosabat bildiradi.

Lingvodidaktika nutq faoliyatini o'qitishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqadi. Nutq faoliyatining lingvodidaktik mohiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

1. Kommunikativ yo'naltirilganlik - Zamonaviy metodikada til vositalari maqsad sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida qaraladi[6, 56b]. Nutq faoliyatini o'qitish jarayoni real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan bo'lishi zarur.

2. Kompetensiyaviy yondashuv - Nutq faoliyatini shakllantirish natijasida quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- ✓ lingvistik kompetensiya;
- ✓ sotsiolingvistik kompetensiya;
- ✓ pragmatik kompetensiya;
- ✓ diskursiv kompetensiya [3, 210b].

Demak, nutq faoliyati til o'qitishning yakuniy natijasini belgilaydi.

3. Integrativ xarakter - Nutq faoliyatining barcha turlari bitta tizimni tashkil etadi[3, 95b]. Ularni alohida emas, balki o'zaro uzviy bog'liq holda o'qitish samaradorlikni oshiradi. Masalan:

- ✓ Tinglab tushunish asosida dialog tuzish;
- ✓ O'qilgan matn asosida yozma fikr bildirish;
- ✓ Ko'rilgan video asosida munozara tashkil etish [4, 88b].

4. Faoliyatga yo'naltirilganlik - Nutq faoliyati faqat bilim emas, balki amaliy ko'nikma va malaka tarzida shakllantiriladi. Bu esa mashq tizimi, vaziyatli topshiriqlar va interfaol metodlarni talab qiladi.

Nutq faoliyatini samarali shakllantirish quyidagi tamoyillarga tayanadi[3, 60b]: tizimlilik va izchillik; kommunikativlik; faoliyatga yo'naltirilganlik; differensial yondashuv; motivatsiyani qo'llab-quvvatlash.

Zamonaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nutq faoliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda[5, 72b]. Audio materiallar tinglab tushunishni, onlayn forumlar yozma nutqni, videokonferensiyalar esa og'zaki nutqni rivojlantirish imkonini beradi. Hozirgi kunda nutq faoliyati multimodal vositalar bilan rivojlantirilmoqda. Matn, audio, video va vizual materiallarning uyg'unligi

o'quvchilarda kompleks idrokni yaratadi. Multimodal ta'lim nutq faoliyatining barcha turlarini parallel ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa lingvodidaktik jihatdan yuqori samaradorlikni taminlaydi.

Xulosa qismi. Nutq faoliyati turlari til ta'limining metodologik asosi hisoblanadi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish o'zaro integrativ tizim sifatida qaralishi kerak. Nutq faoliyatining lingvodidaktik mohiyati kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosida belgilanadi. Shu jihatdan, zamonaviy til o'qitish jarayonida kompetensiyaviy, kommunikativ va integrativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq faoliyatini o'qitish jarayoni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, balki amaliy, faoliyatga yo'naltirilgan va texnologik jihatdan boyitilgan tarzda tashkil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zimnyaya I.A. Psixologiya obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
2. Leontyev A.A. Osnovy psixolingvistiki. – Moskva: Smysl, 1999.
3. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
4. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003.
5. Safarova F.R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chet til o'qitish. – Toshkent, 2018.
6. Passov E.I. Kommunikativnyy metod obucheniya inostrannomu yazyku. – Moskva: Prosveshcheniye, 1985.